

Xulosa. Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekalogik madaniyatni va ekalogik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish o'rganlari ishi balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatga bo'lgan farzandlik burchidir.

DORIVOR ODDIY BO'YMADARON (*Achillea millefolium* L.) NING YETISHTIRISH AGROTEKNOLOGIYASI, EKOLOGIYASI HAMDA SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI

Juraeva Ozodakhon Botirali qizi
ozodakhonjuraeva@gmail.com
Farg'ona davlat universiteti

Kirish. Bizni qurshab turgan olam yashil sayyorada inson paydo bo'lmasdan oldin, o'simliklar olami paydo bo'ldi. Tabiatda o'sadigan har bir o'simlikning hayot zanjirida o'rni bo'lganidek, shu o'simliklarning inson hayoti va sog'lig'iga ham katta ta'sirga ega.

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi tarqalgan bo'lib, O'zbekistonda 577 turi o'sadi. Shulardan 250 turi ilmiy tabobatda keng ishlatiladi. Murakkabgullilar qabilasining astraguldoshlar oilasiga mansub Oddiy bo'ymadaron (*Achillea millefolium* L.) tabobatda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Bo'ymadaron o'simligi yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, cho'l hududlarida, tog'li joylarda, o'rmon chetlarida hamda yo'l yoqalarida uchratish mumkin. Oddiy bo'ymadaron o'simligining bo'yi 20-50 sm, ba'zan 80 sm ga yetadi. Ildizpoyasi shoxlangan. Barglar tukli, kulrang-yashilrangli, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari savatchada murakkab qalqonsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi yassi, tuxumsimon pistadir. Bo'ymadaron iyundan boshlab, yozning oxirigacha gullaydi va mevasi avgust oyida yetiladi.

Tadqiqot uslublari. Mamlakatimizda dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilardan foydalanishga talab ortgan. Bu esa o'z navbatida, dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo'lmoqda. Ehtiyojni qondirish maqsadida hozirda dorivor o'simliklarni yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Bo'ymadaron o'simligi O'zbekiston Respublikasining sho'r yerlaridan tashqari barcha sug'oriladigan yerlarda ekib o'stirilishi mumkin. Bo'ymadaron ekiladigan yerlarni kuzda o'g'itlanib, 25-27 sm chuqurlikda haydaladi. So'ngra erta bahorda tuproq harorati 14-15 °C bo'lganda 1,5-2 sm chuqurlikda ekiladi va gektar hisobiga 6-7 kg urug' sarflanadi. Kuzda esa 0,5-1,5 sm chuqurlikda ekiladi. Urug'lar ekayotganda 15-20 kg azot o'g'iti solinadi. Nihollar tuproq harorati +20 °C bo'lganda yaxshi ildiz ota boshlaydi.

O'simlikni birinchi oziqlantirish nihollar 4-6 chin barg chiqarganda va bo'yi 5-8 sm ga yetganda qator oralari 5 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi. E. T. Berdiyev, M. X. Hakimovanning "O'rmon dorivor o'simliklari" kitobida o'simlik ekilgan maydonlarga o'rtacha gektariga 95 kg azot, 70 kg fosfor, 50 kg kaliy o'g'iti solinsa hamda birinchi yili 8 marta va 5-6 marta o'simlik oralari kultivatsiya qilinsa, hosildorlik yuqori bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'simlik o'sishi davomida uni o'simlik bitlari (to'pgullarida *Macrosiphoniella millefolii* va bargida *Brachycaudus helichrysi* kabi turlari) hamda *Sitona lineatus* katta zarar keltiradi. Shu bilan birga *Golovinomyces macrocarpus* va ba'zan *Pustula obtusata* kabi kasallik turlari uchraydi. Ularga qarshi biologik – kimyoviy kurash usullari yaxshi samara beradi.

Natija. Oddiy bo'ymadaron o'simligi gullashning boshlang'ich bosqichida (iyun - avgust oyining birinchi yarmida) yig'iladi, uzunligi 15 sm gacha kesib olinadi. O'simlik besh yilgacha hosil beradi. Xom ashyoni salqin joyda yoki quritgichlarda 50 °C haroratda quritiladi. Xom ashyoni yopiq idishlarda, hidli moddalardan uzoqroq joyda saqlash tavsiya etiladi.

Mahsulot tarkibida karotin, K va S vitaminlar, axillein va betonitsin alkaloidlari, 0,8% gacha efir moyi, matrikarin izomeri, millefin laktoni, asparagin, smola, oshlovchi, achchiq

(proxamazulen-axillin) va boshqa moddalar bo'ladi. Bundan tashqari, chumoli, sirka va valerian kislotalar bor.

Oddiy bo'ymadaron o'simligining yer ustki qismi ko'p kasalliklarga davo ekanligi sababli, O'zbekiston florasidan ilmiy tabobatga joriy qilingan yangi dorivor o'simliklar qatoriga kiritilgan. Oddiy bo'ymadaronning asosan yer ustki qismi dorivor bo'lib, me'da-ichak ya'ni me'da yarasi va gastirit hamda shilliq qavat yallig'lanishi kabi kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari ishtaha oshishda, ichakdan, bachadondan va gemorroidal qon oqishida qon to'xtatuvchi dori sifatida hamda burun, milk va yaralar qonaganida uni to'xtatish uchun ishlatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston xududida oddiy bo'ymadaronning dorivorlik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalar qatoridan joy oladi. Buning uchun serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yararish va hosildorligini oshirish bugungi kundagi kundagi yechimini kutayotgan dolzarb varifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'.Ahmedov, A.Ergashev. "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi". Toshkent, 2018.
2. E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova. "O'rmon dorivor o'simliklari". Toshkent, 2016.

UGLEROD-HAYOT ELEMENTI

*Musinjonova G., Nazirtashova R.M.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Uglerod yer po'stining massa jihatidan 2 %ini tashkil etadi. U yer po'stining yuqori qismi (biosfera) da bo'ladi. Tirik organizmlarda 18%, yog'ochda 50%, toshko'mirda 80%, neftda 85%, antratsitda 95% uglerod bor. Uglerodga xos minerallar soni 112 ta. Uglerod koinotda ham keng tarqalgan bo'lib, quyoshda vodorod, geliy, kisloroddan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy holdagi uglerodning har bir atomi to'rtta boshqa uglerod atomlari bilan mustahkam bog'langan bo'ladi. O'sha to'rtta atomning har biri ham yana to'rtta atomga mahkam bog'lanishi mumkin. Shu tariqa, barcha uglerod atomlari bir-biri bilan juda mustahkam bog'lanish hosil qiladi. Bunday bog'larni uzishga ham ulashga ham muayyan jiddiy kuch sarflash kerak bo'ladi. Shu sababli ham uglerod odatiy sharoitlarda qattiq holda bo'ladi. Uglerod qip-qizarib ketguncha qizdirganda ham u qattiqligicha qolaveradi. Lekin, uni ham baribir suyuq ko'rinishga keltirish mumkin. Buning uchun 3500 °C harorat kerak bo'ladi. Kimyoviy elementlar ichida eng yuqori erish haroratiga ega bo'lgan element aynan ugleroddir.

Uglerodning amorf shakli – faollangan ko'mir kuchli adsorbent hisoblanadi. U nafaqat gazlarni, balki erigan moddalarni ham yutadi. Faollashtirilgan ko'mirni shuningdek, moddalarni rangsizlantirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, shakarni tozalash jarayonining so'nggi bosqichida, undagi qo'ng'ir tusdagi aralashmalar yo'q qilinadi. Bunday aralashmalarning molekulasi shakar molekulasidan ko'ra kattaroq o'lchamga ega bo'ladi. Shakarli siropga faollashtirilgan ko'mir qo'shilsa, aralashmalarning molekulasi ko'mir zarralariga yopisha boshlaydi; shakarning o'z molekulari esa bu jarayonda ishtirok etmaydi. Keyin esa, faollashtirilgan ko'mirni chiqarib tashlanadi va siropni bug'latiladi. Natijada, sof va oppoq shakar o'zi qoladi. Shu tariqa, qo'ng'ir siropga qora ko'mir qo'shish orqali, yakunda biz oppoq modda olmoqdamiz. Faollashtirilgan ko'mir shuningdek gaz niqoblari, ya'ni, protivogazlarda ham ishlatiladi. Bunda, protivogazning filtr qutisi shunday faollashtirilgan ko'mir bilan to'ldiriladi. U orqali nafas olinganda esa, havo o'pkaga yetib borishdan avval ko'mir kukunlari orqali o'tadi. Faollashtirilgan ko'mir orqali o'tayotgan havo tarkibidagi azot va kislorod molekulari to'siqqa uchramay, ravon o'tib ketadi. Zaharli gazlarning yirik molekulari esa faollashtirilgan ko'mir zarralariga yopishib qolib, quti ichida tutilib qoladi. Kukunsimon uglerodni, shuningdek, qurum ham deyiladi va undan ajralib chiquvchi qora rangni turli bo'yoq moddalar, masalan, tush va printer uchun siyoh-kukuni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Shuningdek, qurum rezinaning